# OLIY TA’LIM MUASSASALARDA O‘QITILADIGAN XIZMATLAR SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHNING METODIK TIZIMI

***Sh.A.Rashidov***

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*“Matematika va informatika” kafedrasi*

*Erkin tadqiqotchi*

*+998979114459*

*sherzodrshdv@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarda o‘qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik tizim takomillashtirish masalalari bo’yicha muallif tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *oliy ta’lim, xizmatlar, axborot texnologiyalari, texnologiya.*

Jahonda axborot texnologiyalari faniga daxldor barcha fanlarni o‘qitishda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda shu orqali ta’lim sifatini ta’minlash, ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalarining amaliy tatbiqlari samaradorligini oshirish va fanlararo aloqadorlik asosida talabalarni kasbga yo‘naltirish kabi masalalarni qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida, innovatsion strategiyalarni axborot texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlariga qo‘llash, Oliy ta’lim muassasa talabalarining faolligini oshirish, mustaqil bilim olish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga keng tatbiq etish borasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fani holati tahlil etilgan bo‘lib, unga ko‘ra Oliy ta’lim muassasalarida xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitish mazmuni,

o‘quv-uslubiy ta’minoti hamda metodikasida, ayniqsa, pedagogik texnologiya tamoyillari asosida darslarni loyihalashtirish va shu asosda dars jarayonini tashkil etishda ayrim kamchiliklar mavjud ekanligiga aniqliklar kiritilib, ularni takomillashtirish to‘g‘risida taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fani mazmunini takomillashtirish va dars jarayonlarini loyihalashtirish davr talabi, degan xulosaga kelindi.

Oliy ta’lim muassasalarda xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitish sifatini yanada yaxshilash omillaridan biri sifatida o‘qitishning metodik tizimi ishlab chiqildi.

Xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik tizimini hamda uning asosida:

- metodik modelini yaratishning ilmiy asosi belgilandi;
- Oliy ta’lim muassasalarda xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘rganishning metodik tizimini ishlab chiqishda turli innovatsion yondashuvlar hisobga olindi;
- an’anaviy o‘qitishning metodik tizimidan farqli o‘laroq, Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fani dars mashg‘ulotlari loyihalari metodik tizimning asosiy elementi sifatida qo‘llanildi.

Oliy ta’lim muassasalarda xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodik tizimining asosiy elementi bo‘lgan ***o‘qitish maqsadlari:***

jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik tizimini yaratishdagi ***asosiy vazifa***:

o‘qitishning metodik tizimi modelini yaratishdir.

Shundan kelib chiqib Oliy ta’lim muassasalarda o‘qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik tizimi ishlab chiqilib, uning har bir elementiga sharh berildi.

Oliy ta’lim muassasalarda o‘qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning maqsadini belgilashda mamlakat har bir fuqarosining shaxs sifatida shakllanishida uning muhim o‘rin tutishi va kelgusida

samarali hayotiy va kasbiy faoliyat yuritish imkoniyatlarini oshirishi zarur. O'qitish metodik tizimining asosiy elementlaridan yana biri biz tomonidan taklif etilayotgan dars mashg'ulotlari loyihalari hisoblanadi. Bugungi kunda hukumatimiz hamda jamiyat tomonidan Oliy ta'lim muassasalarning ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan talablardan biri o'qitishning metodik tizimi elementlari orasida dars mashg'ulotlarining loyihalari bo'lib, ular ta'lim sifatining kafolatidir.

Yuqorida ta'kidlanganlarga asosan, Oliy ta'lim muassasalarda o'qitiladigan xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o'qitishning metodik tizimini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fani ta'lim jarayonini tashkil etishda dars mashg'ulotlari loyihalarining o'rni va ahamiyati ko'rsatib berildi.

Xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanidan dars mashg'ulotlarining loyihalarini tuzish bosqichlari takomillashtirildi. Ushbu loyihalashtirish bosqichlaridan foydalanib, dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishda:

- Davlat ta'lim standarti;
- malaka talablari;
- va shu asosda ishlab chiqilgan o'quv reja;
- o'quv fan dasturi;
- darslik;
- o'quv va o'quv-metodik qo'llanma;
- metodik tavsiyanomalar;
- o'quv faniga tegishli bo'lgan boshqa o'quv materiallari asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Попов Е.Н. "Услуги образования и рынок" // РЭЖ. №6. 1992. –С. 43-49.
2. Баженова В.С. "Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы". – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000.
3. Абдурахманов К.Х., Дадабоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. "Современный

менежмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие”. – Т.: ТГЭУ, РЭА, - 2006. -7 с.

4. Ахунова Г. “Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети. –Т.: “Иқтисод-Молия”, 2005 й.– 244 б.
5. Котляр Ф. “Основы маркетинга”. – М.: Изд. Дело, 2006.
6. Сонь Т.А. “Формирование рынка образовательных услуг” / www.marketing /spb.ru